

QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARINI ISHLAB CHIQRISHNI  
MAHALLIYLASHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISHNI  
QO‘LLAB-QUVVATLASH

**Namozov Dilshodbek G‘anijonovich,**

*Bojxona qo‘mitasi katta ilmiy xodimi*

*E-mail: dilshodbeknamozov@gmail.com*

*Hammuallif:*

**Shoimqulov Raxmonqul Ulug‘murotovich,**

*Bojxona qo‘mitasi yetakchi ilmiy xodimi*

*E-mail: rshomiqulov7372@gmail.com*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 18.06.2026*

*Revised: 19.06.2026*

*Accepted: 20.06.2026*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*qishloq xo‘jaligi  
texnikasi,  
mahalliyashtirish,  
import, eksport, traktor,  
kombayn,  
mexanizatsiya, bojxona  
to‘lovlari, bojxona  
imtiyozlari, sanoat  
kooperatsiyasi.*

*Mazkur maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi texnikalarining tashqi savdosi, ichki ishlab chiqarish holati, importga qaramlik darajasi, undirilgan bojxona to‘lovlari va qo‘llanilgan imtiyozlar tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida qishloq xo‘jaligi texnikalarini mahalliyashtirish, ehtiyot qismlar va butlovchi komponentlar ishlab chiqarishni kengaytirish, bojxona imtiyozlarining samaradorligini oshirish, texnikalardan foydalanishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda mahalliy mahsulotlarning eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kirish**

Qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish va agrotexnik tadbirlarni belgilangan muddatlarda amalga oshirishda zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yerga ishlov berish, urug‘ ekish, hosilni parvarishlash va yig‘ib olish jarayonlarining mexanizatsiyalashuvi qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining oshishi hamda qo‘l mehnatining qisqarishini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasi 81 foizga yetgan. So‘nggi yillarda 1 756 ta paxta terish mashinasi xarid qilinib, paxta terimini

mexanizatsiyalash darajasi 52 foizga yetkazildi. O'tgan mavsumda 2,1 million tonna paxta mashinalar yordamida yig'ib olinganligi natijasida keyingi besh yil davomida paxta terimida qo'l mehnati 1,8 barobar qisqardi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi texnikalariga bo'lgan ichki talabning katta qismi import hisobidan qoplanmoqda. Mazkur holat ichki ishlab chiqarishni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va import qilinayotgan texnikalar tarkibini chuqur tahlil qilgan holda mahalliyashtirish uchun istiqbolli yo'nalishlarni belgilashni talab etadi.

### **Qishloq xo'jaligi texnikalaring tashqi savdosi tahlili**

Mamlakatimizga 2025-yilda import qilingan qishloq xo'jaligi texnikalari 506 million AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yildagi 251 million dollarga nisbatan qariyb ikki barobar oshgan. 2026-yilning birinchi choragida esa import hajmi 40 million dollarni tashkil etib, 2025-yilning mos davridagi 37 million dollarga nisbatan 8 foizga ko'paygan.

2025-yilda qishloq xo'jaligi texnikalari importining 62 foizi yoki 316 million dollari kombaynlar hissasiga to'g'ri kelgan. Traktorlar importi 134 million dollarni yoki jami importning 26 foizini tashkil etgan. Urug' ekish texnikalari – seyalkalar importi 17 million dollarni, yer tekislash, o'simlik poyalarini maydalash, plug, borona va boshqa tirkama hamda osma uskunalar importi esa 40 million dollarni tashkil qilgan.

Importning mamlakatlar kesimidagi tahliliga ko'ra, 2025-yilda qishloq xo'jaligi texnikalarning 359 million dollarlik yoki 71 foizlik qismi Xitoydan, 86 million dollari yoki 17 foizi Belorussiyadan, 37 million dollari yoki 7 foizi Turkiyadan olib kelingan. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi texnikalari importining qariyb 95 foizi uchta davlat hissasiga to'g'ri kelgan.

Importning muayyan davlatlarga yuqori darajada bog'lanib qolishi tashqi savdo va logistika sharoitlari o'zgargan holatlarda ichki bozor ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yetkazib berish muddatlarining uzayishi, transport xarajatlarining oshishi, ehtiyot qismlar ta'minotidagi uzilishlar va valyuta kursining o'zgarishi texnikalarning yakuniy qiymatiga bevosita ta'sir qiladi.

Qishloq xo'jaligi texnikalari eksportida ijobiy o'sish qayd etilgan bo'lsa-da, uning umumiy hajmi import bilan taqqoslaganda juda past darajada qolmoqda. Jumladan, 2025-yilda eksport hajmi 2,6 million dollarni tashkil etib, 2024-yildagi 1,8 million dollarga nisbatan 45 foizga oshgan. Biroq 2026-yilning birinchi choragida eksport hajmi 14 ming dollarni tashkil etib, 2025-yilning mos davridagi 166 ming dollarga nisbatan keskin kamaygan.

### **Mahalliy ishlab chiqarish va importga qaramlik darajasi**

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonda 542 dona traktor ishlab chiqarilgan. Mazkur ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 36 foizga oshgan. Ayni paytda 2025-yilda mamlakatga 2 143 dona traktor import qilingan. 2024-yilda bu ko'rsatkich 2 528 donani tashkil etgan.

Mahalliy ishlab chiqarish va import qilingan traktorlar soni birgalikda hisoblanganda, 2025-yilda ichki bozorga jami 2 685 dona traktor yetkazib berilgan. Shundan mahalliy ishlab chiqarishning shartli ulushi 20 foizni, importning ulushi esa 80 foizni tashkil etgan.

Demak, mahalliy ishlab chiqarish hajmi o'sayotgan bo'lsa-da, traktorlar bozorida talabning asosiy qismi hamon import hisobidan qoplanmoqda. Kombaynlar importining 316 million dollarga yetganligi esa mazkur yo'nalishda importga qaramlik yanada yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Ichki ishlab chiqarishni kengaytirishda faqat tayyor texnikalarni yig'ish bilan cheklanib qolmasdan, dvigatel, transmissiya, gidravlik tizim, kabina, elektron boshqaruv qurilmalari, osma uskunalar va tez ishdan chiqadigan ehtiyot qismlarni bosqichma-bosqich mahalliyashtirish muhim ahamiyatga ega.

Aks holda, mamlakat hududida yig'ilgan texnikaning asosiy butlovchi qismlari import qilinishi davom etadi va mahalliyashtirishning iqtisodiy samarasi cheklangan bo'lib qoladi. Shu sababli mahalliyashtirish darajasini faqat korxonada bajarilgan yig'ish ishlari bilan emas, balki texnika qiymatida mahalliy xomashyo, butlovchi qismlar, mehnat va xizmatlar ulushi orqali baholash maqsadga muvofiq.

### **Bojxona to'lovlari va imtiyozlarining iqtisodiy ahamiyati**

Qishloq xo'jaligi texnikalari va ularning ehtiyot qismlari importi hajmining oshishi natijasida 2025-yilda undirilgan bojxona to'lovlari 971 milliard so'mni tashkil etgan. Bu 2024-yildagi 405 milliard so'mga nisbatan qariyb 2,4 barobar ko'p.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, qishloq xo'jaligi texnikalari va ularning ehtiyot qismlarini import qilishda tovar turiga qarab 5 foizdan 15 foizgacha import bojxona boji hamda 12 foiz qo'shilgan qiymat solig'i belgilangan.

Shu bilan birga, 2025-yilda mazkur texnikalar va ehtiyot qismlarni import qilishda 824 milliard so'mlik bojxona imtiyozlari qo'llanilgan. Bu 2024-yildagi 652 milliard so'mga nisbatan 26 foizga ko'p. Imtiyozlarning 69 foizi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda PQ-431-son qarori asosida, 22 foizi esa erkin savdo to'g'risidagi xalqaro bitim doirasida qo'llanilgan.

2025-yilda undirilgan bojxona to'lovlari va berilgan imtiyozlarning umumiy miqdori qariyb 1,8 trillion so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich qishloq xo'jaligi texnikalari importiga nisbatan davlat tomonidan sezilarli tarif va soliq yengilliklari berilayotganini ko'rsatadi.

Biroq imtiyozlarning oshib borishi o'z-o'zidan mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishini anglatmaydi. Imtiyozlar asosan tayyor xorijiy texnikalarni import qilishni arzonlashtirishga xizmat qilsa, qisqa muddatda fermer va klasterlarning texnikaga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, biroq uzoq muddatda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozor imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Shu sababli bojxona imtiyozlari bir tomondan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini zamonaviy texnikalar bilan ta'minlashga, ikkinchi tomondan esa mahalliyashtirish

jarayonlarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan muvozanatli mexanizmga aylantirilishi lozim.

### **Mahalliyashtirishning ustuvor yo'nalishlari**

Qishloq xo'jaligi texnikalarini mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqishda import hajmi, ichki talab, texnikaning murakkablik darajasi, ishlab chiqarish uchun zarur texnologiyalar va mavjud sanoat salohiyatini hisobga olish zarur.

Birinchi navbatda, import tarkibida yuqori ulushga ega bo'lgan kombaynlar va traktorlar bo'yicha alohida mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda darhol barcha murakkab agregatlarni ishlab chiqarish vazifasini qo'yishdan ko'ra, jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish samaraliroq hisoblanadi.

Dastlabki bosqichda metall konstruksiyalar, kabina qismlari, disklar, g'ildiraklar, o'rindiqlar, akkumulyatorlar, elektr simlari, yoritish uskunalari, filtrlar, rezina-texnika buyumlari va boshqa nisbatan sodda komponentlarni mahalliyashtirish mumkin. Keyingi bosqichlarda gidravlik tizimlar, uzatmalar qutisi, boshqaruv elektronikasining ayrim qismlari hamda dvigatel komponentlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur.

Ikkinchidan, osma va tirkama uskunalarni mahalliyashtirish imkoniyatlari nisbatan yuqori. Plug, borona, kultivator, seyalkalar, o'simlik poyalarini maydalash, yer tekislash va o'g'it sepish uskunalari ishlab chiqarish murakkab o'ziyurar texnikalarga qaraganda kamroq texnologik va moliyaviy resurs talab qiladi. Shu bois osma va tirkama uskunalarni mahalliyashtirish darajasini 60–65 foizga yetkazish bo'yicha belgilangan vazifalar amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

Uchinchidan, ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Qishloq xo'jaligi texnikalarining xizmat muddati uzoq bo'lib, ularga doimiy ravishda filtrlar, podshipniklar, tasmalar, zanjirlar, pichoqlar, tishli g'ildiraklar, gidravlik shlanglar va boshqa sarflanadigan qismlar talab etiladi. Ushbu mahsulotlarning mahalliy ishlab chiqarilishi texnikalarni ta'mirlash muddatini va fermerlarning ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi.

To'rtinchidan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, metallurgiya, elektrotexnika, kimyo sanoati va kichik biznes subyektlari o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish zarur. Yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan texnikaning ehtiyot qismlari va butlovchi komponentlariga bo'lgan yillik ehtiyoj ochiq e'lon qilinishi, ularni mahalliy tadbirkorlar o'rtasida joylashtirish mexanizmi joriy etilishi mumkin.

Beshinchidan, mahalliyashtirish loyihalarini baholashda ishlab chiqarilgan mahsulot soni bilan bir qatorda mahalliy qo'shilgan qiymat, yaratilgan ish o'rinlari, import o'rnini bosish hajmi, eksport tushumi va mahsulotning texnik ishonchliligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish zarur.

### **Qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash**

Mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi ishlab chiqarilgan texnikalarga barqaror talab mavjud bo'lishiga bog'liq. Fermer xo'jaliklarining aylanma mablag'lari cheklanganligi va

zamonaviy texnikalar qiymatining yuqoriligi ularni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish imkoniyatini pasaytiradi.

Shu sababli mahalliy texnikalarni xarid qilish uchun uzoq muddatli imtiyozli kreditlar, lizing, foiz xarajatlarini qisman qoplash va boshlang'ich to'lovlarni kamaytirish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunda qo'llab-quvvatlash miqdori texnikaning amaldagi mahalliyashtirish darajasiga bog'lanishi mumkin. Mahalliy komponentlar ulushi yuqori bo'lgan texnikalar uchun qulayroq moliyalashtirish shartlari belgilanishi ishlab chiqaruvchilarni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga rag'batlantiradi.

Shuningdek, har bir fermer xo'jaligining qimmatbaho texnikani alohida xarid qilishi iqtisodiy jihatdan hamma vaqt ham samarali emas. Shu bois hududlarda texnikalarni ijaraga beruvchi agroservis markazlari va mashina-traktor parklarini rivojlantirish zarur. Bunday markazlar kichik va o'rta fermerlarga texnikadan mavsumiy yoki soatbay asosda foydalanish imkonini beradi.

Texnikalardan samarali foydalanish uchun servis xizmatlari tizimini ham rivojlantirish talab etiladi. Ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan hududiy servis markazlari, ehtiyot qismlar omborlari va mobil ta'mirlash guruhlarini tashkil etilishi lozim. Texnikaning uzoq vaqt ta'mirda turib qolishi qishloq xo'jaligi ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilmasligiga va hosildorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi texnikalari operatorlari va mexaniklarini o'qitish tizimini takomillashtirish zarur. Zamonaviy texnikalar elektron boshqaruv, avtomatik navigatsiya va masofaviy diagnostika tizimlari bilan jihozlanmoqda. Ularni noto'g'ri boshqarish texnikaning erta ishdan chiqishi va ekspluatatsiya xarajatlarining ortishiga sabab bo'ladi.

### **Bojxona-tarif siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar**

Qishloq xo'jaligi texnikalarini mahalliyashtirishda boj-tarif siyosati ishlab chiqarish va iste'mol manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi kerak. Mahalliy ishlab chiqarilmaydigan zamonaviy texnikalar importiga sun'iy to'siqlar qo'yilishi qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashuvini sekinlashtirishi mumkin. Biroq mamlakatda ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan tayyor texnikalar importini doimiy ravishda imtiyozli tartibda qo'llab-quvvatlash mahalliy korxonalar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi choralarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Import hajmi va ichki ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi texnikalari va ehtiyot qismlarining mahalliyashtirish salohiyatiga ega turlari ro'yxatini shakllantirish.

2. Bojxona imtiyozlarini texnikaning mamlakatda ishlab chiqarilmasligi, ishlab chiqarish quvvatlarining yetarli emasligi va qishloq xo'jaligidagi haqiqiy ehtiyoj mezonlari asosida qo'llash.

3. Imtiyoz olgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mahalliy lashtirish darajasi, yaratilgan ish o‘rinlari va import o‘rnini bosish natijalari bo‘yicha elektron monitoring tizimini joriy etish.

4. Mamlakatda yetarli hajmda va talab etilgan sifatda ishlab chiqarila boshlagan texnikalar hamda ehtiyot qismlar bo‘yicha imtiyozlarni bosqichma-bosqich qayta ko‘rib chiqish.

5. Import qilinadigan tayyor texnika va uni mamlakatda ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan butlovchi qismlarga nisbatan bojxona-tarif siyosatini o‘zaro muvofiqlashtirish.

6. Bir xil vazifani bajaruvchi, biroq turli TIF TN kodlarida tasniflanishi sababli bojxona to‘lovlari miqdori keskin farqlanadigan texnikalarni aniqlash va tarif stavkalarini maqbullashtirish.

### **Eksport salohiyatini oshirish**

Mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish faqat ichki bozor bilan cheklanmasligi kerak. Markaziy Osiyo va Afg‘oniston bozorlarida nisbatan sodda, ta‘mirlash uchun qulay va mahalliy iqlim sharoitlariga moslashtirilgan qishloq xo‘jaligi texnikalariga talab mavjud.

O‘zbekiston korxonalarini uchun, avvalo, seyalkalar, pluglar, boronalar, kultivatorlar va boshqa osma uskunalarni eksport qilish istiqbolli hisoblanadi. Mazkur texnikalar murakkab o‘ziyurar texnikalarga nisbatan arzon bo‘lib, ularni ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga moslashtirish imkoniyati yuqori.

Eksportni rivojlantirish uchun mahsulotlarni xalqaro va import qiluvchi davlatlar standartlariga muvofiq sertifikatlash, xorijda dilerlik va servis tarmoqlarini tashkil etish, eksport kreditlari va sug‘urtasi mexanizmlaridan foydalanish hamda mahalliy texnikalarni xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish qilish zarur.

Shuningdek, eksport geografiasini faqat bitta yoki ikkita bozor bilan cheklab qo‘ymasdan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va boshqa yaqin davlatlarda talabni tizimli o‘rganish maqsadga muvofiq.

### **Kutilayotgan natijalar**

Taklif etilayotgan choralar amalga oshirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi texnikalari va ehtiyot qismlarining mahalliy ishlab chiqarilishi kengayadi, importga qaramlik bosqichma-bosqich kamayadi hamda mamlakatda yaratiladigan qo‘shilgan qiymat oshadi.

Mahalliy ehtiyot qismlar va servis xizmatlarining rivojlanishi fermerlarning texnikani saqlash va ta‘mirlash xarajatlarini kamaytiradi. Imtiyozli kredit va lizing mexanizmlari texnikalarni yangilash jarayonini tezlashtiradi, agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlaydi va qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshiradi.

Mahalliy lashtirish majburiyatlari bilan bog‘langan bojxona imtiyozlari budjet mablag‘lari va berilayotgan preferensiyalarning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, texnikalarni ishlab chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Belgilangan vazifalarga muvofiq, 2026-2028-yillarda mahalliy qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishni besh baravar oshirish, 2026-yilda ishlab chiqarish hajmini 6 ming donaga yetkazish, 2028-yilgacha o'ziyurar texnikalarda mahalliy lashtirish darajasini 30-35 foizga, osma va tirkama uskunalarda esa 60-65 foizga yetkazish uchun zarur iqtisodiy va institutsional sharoitlar shakllantiriladi.

### **Xulosa**

O'tkazilgan tahlil O'zbekistonda qishloq xo'jaligi texnikalariga bo'lgan talab yuqori sur'atlarda o'sayotganini, biroq uning asosiy qismi import hisobidan qoplanayotganini ko'rsatmoqda.

Mahalliy traktor ishlab chiqarish hajmi 36 foizga oshgan bo'lsa-da, ichki bozorga yetkazib berilgan traktorlarning qariyb 80 foizi import hissasiga to'g'ri kelmoqda. Kombaynlar importining yuqori qiymati esa mazkur segmentda mahalliy lashtirish imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Shu sababli qishloq xo'jaligi texnikalarini mahalliy lashtirish siyosati importni shunchaki cheklashga emas, balki raqobatbardosh ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni kengaytirish, muhandislik va servis salohiyatini oshirishga qaratilishi lozim.

Bojxona va soliq imtiyozlari esa mahalliy lashtirish darajasi, ishlab chiqarish hajmi, investitsiya majburiyatlari, yaratilgan ish o'rinlari va import o'rnini bosish natijalariga bog'langan holda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga mahalliy texnikalarni xarid qilish uchun qulay kredit va lizing shartlarini yaratish, agroservis markazlarini rivojlantirish hamda sifatli servis xizmatlarini yo'lga qo'yish bir vaqtning o'zida mahalliy ishlab chiqarishni va qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashuvini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada ichki talabni milliy mahsulotlar hisobidan qoplash, importga qaramlikni kamaytirish va O'zbekistonning mintaqaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bozoridagi o'rnini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining qishloq xo'jaligi texnikalari va ularning ehtiyot qismlari tashqi savdosiga oid statistik ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining qishloq xo'jaligi texnikalari importidan undirilgan bojxona to'lovlari va qo'llanilgan imtiyozlarga oid ma'lumotlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarilishiga oid rasmiy statistik ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi: 2016-yil 20-yanvardagi O'RQ-400-son Qonun bilan tasdiqlangan.

5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: 2019-yil 30-dekabrda O‘RQ-599-son Qonun bilan yangi tahrirda tasdiqlangan.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-431-son qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-noyabrda “Chirchiq shahrida qishloq xo‘jaligi mashinasozlik klasterini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-7-son qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3818-son qarori.

